

## “BOSHLANG‘ICH SINIF ÒQUVCHILARIDA MA’NAVIY AHLOQIY SIFATLARNI SHAKLLANISHI”

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Ta’lim tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim) 1- bosqich magistranti*

**Allaberdiyeva Laylo Qurbonazar qizi**

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada yoshlarni avvalo umuminsoniyat tomonidan qabul qilingan axloqiy madaniyat unsurlarini, kasbiy odob, etiket qoidalariga amal qilishi, ishbilarmonlik, faol hayot tarzi, ko‘p tillarni bilishi, bag‘rikenglik, demokratiya prinsiplariga sodiqlikni, texnika, texnologiyalarda salohiyat, yuksak bilimlar egasi bo‘lishlari kerakligi haqidagi ma’lumotlar bayon etilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *shaxs, qadriyat, odob, axloq, ma’naviyat, madaniyat, adabiyot, san’at, ta’lim, tarbiya, oila, yoshlar.*

**Аннотация:** *В этой статье молодежь рассматривается прежде всего как изучение элементов принятой нравственной культуры, профессионального этикета, этикета соблюдение правил делового общения, активного образа жизни, многоязычия терпимости, приверженности принципам демократии, техники, в технологиях изложена информация о том, что они должны обладать потенциалом, высокими знаниями.*

**Ключевые слова:** *личность, ценность, этикет, мораль, духовность, культура, литература, искусство, образование, воспитание, семья, молодежь.*

**Annotation:** *In this article, young people are first viewed by the general public accepted elements of moral culture, professional etiquette, etiquette follow the rules, business, active lifestyle, multilingual knowledge, tolerance, commitment to the principles of democracy, technique, in technology, information is stated that they should be the owners of potential, high knowledge.*

**Keywords:** *person, value, decency, morality, spirituality, culture, literature, art, education, upbringing, family, youth.*

Hayotimiz globallashuv davrida, dunyo xalqlari ma’daniy aloqalarini kengayib borishida yoshlarimizda milliy, axloqiy qadriyatlarimizga sodiqlik ruhida tarbiyalash masalasi alohida ahamiyat kasb etib kelmoqda. Bunga ko‘ra yoshlarimizda milliy, axloqiy ma’daniyatni shakllantirish bugungi tarbiya tizimining muhim vazifasi hisoblanadi, oila buni amalga oshuruvchi asosiy sub’yekt sanaladi. Darhaqiqat, odob ko‘nikmalari bolada yoshlikdan bevosita ota-onalarning na’munaviy xatti-harakatlari ta’sirida shakllanib boradi. “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” degan xalq maqolida ana shu oddiy haqiqat mujassamlashgan. Yoshlar odobi, axloqi faqat muayyan millat, xalq

munosabatida emas, balki xalqaro ijtimoiy-siyosiy miqyosida, xususan, diplomatiya sohasida qabul qilingan qonun-qoidalar tarzida ham amal qilishni talab etmoqda. Kunimizda shaxs qanday axloqiy fazilatlar egasi bo'lishni bilishi kerak? Yoshlar avvalo umuminsoniyat tomonidan qabul qilingan axloqiy madaniyat unsurlarini, kasbiy odob, etiket qoidalariga amal qilish, ishbilarmonlik, faol hayot tarzi, ko'p tillarni bilish, bag'rikenglik, demokratiya prinsiplariga sodiqlik, texnika hamda texnologiyalarda salohiyat, yuksak bilimlar egasi bo'lish talab etilmoqda. Albatta yuksak ma'naviy madaniyat va axloqiy qadriyatlar bo'lgan insonparvarlik va ezgulikka amal qilish asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Inson ma'naviyat sohibi yoki sohibasi ekanligi uning axloqiy madaniyati darajasi bilan belgilanadi. Shunga ko'ra shaxs axloqiy tarbiyasi inson mohiyati

bilan bog'liq azaliy falsafiy muamolardan biri bo'lib hisoblanadi. Chunki barcha tarbiya yo'nalishlari o'zaro birlikda jamiyat va shaxs

ma'naviyatini shakllantirish uchun xizmat qilib mazkur jarayonning natijasi axloqiylik mezonlari bilan o'lchanadi.[1],[2]. Umuman olganda esa har qanday tarbiyaning amaliy ko'rinishi, uning maqsad, vazifalarining qay darajada reallashishi shaxs axloqiy tarbiyasi darajasi bilan belgilanadi.

Shu boisda ham axloqiy tarbiya masalasiga har bir davrda o'ta dolzarb vazifa sifatida qaralgan. Tarixdan ma'lumki, axloqiy tarbiya

Aflotun, Konfutsiy, Yusuf Xos Xojib, Alisher Navoiy, Koshifiy, Avloniy, Arastu kabi mutafakkirlarni diqqat markazlarida bo'lgan

va ular o'zlarini bu haqda noyob fikrlarini meros qilib qoldirganliklarini ko'rishimiz mumkin. Yunon faylasufi Aflotun (er. avv.IV

asr)ning esa fikrlari quyidagicha: "Tarbiya faqat azaldan insonga berilgan fazilatlarni shakllantiradi, yuzaga chiqaradi, xolos. Bordi-yu tarbiya noto'g'ri

berilsa, u holda insondagi azaliy fazilatlar o'zgarishi yoki o'chishi

mumkin.[4]. Axloqiy tarbiya insonni komillikka eltuvchi yo'llarning eng

asosiysi hisoblanadi". Shu bilan bir qatorda Yunon faylasufi Arastu (er.avv. IV

asrda) "Ma'naviy barkamol inson aql bilan fazilat birligiga amal qiladigan

kishidir. Fazilat (axloqiy-tarbiya mahsuli) insonlarning qo'lga kiritgan

sifatidir."- deb ta'kidlangan edi. Shunday ekan axloqiy tarbiya shaxsni

ma'naviy-ruhiy kamol topishning asosiy yo'nalishi hisoblanadi. Shaxsni

axloqiy tarbiyalash murakkab uzluksiz jarayon bo'lib u jamiyat uchun

eng dolzarb masala hisoblanadi. O'z vaqtida buni taniqli ma'rifatparvar

Abdulla Avloniy bir jumla bilan ifodalab bergan edi: "Tarbiya- biz

uchun yo hayot-yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat-yo falokat

masalasidir". Allomaning ushbu fikri hozirgi kunda yoshlarimizni milliy

istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalashda dastur amaliy ahamiyat kasb

etib kelmoqda. Shaxs axloqiy tarbiyasi axloqiy fazilatlar, me'yor va

tamoyillarning muayyan usul va vositalari yordamida, qadriyatlar

miqyosida amalga oshiriladi. Hozirgi vaqtda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma'naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog'liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solib kelmoqda. Bu esa bizning ulug' ajdodlarimiz o'z davrida komil inson haqida butun bir axloqiy mezonlar majmuini, zamonaviy tilda aytganda, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanliklarini eslash o'rinli. Ota-bobolarimizning ong-u tafakkurida asrlar, ming yillar davomida shakllanib, sayqal topgan or-nomus, uyat va andisha, sharm-u ayo, ibo va iffat kabi yuksak axloqiy tuyg'u va tushunchalar bu kodeksning asosiy ma'no-mazmunini tashkil etgan hamda u axloqiy qadriyatlar darajasida qadr-qimmatga ega, desak, mubolag'a bo'lmaydi.[5]

Demak, ma'naviyat axloqdan boshlanib, axloqda mujassamlashadi. Jamiyatning barcha yutuqlari, ilm-fan, siyosat, adabiyot va san'at, urf-odatlar va umuman madaniyat, oxir oqibatda, inson hayoti, munosabatlari, xulq-atvori yaxshilanishi uchun, erkinlik darajasi o'sishi uchun, jamiyat qonunlari va huquqiy qonunlarni amal qilishi uchun xizmat qiladi.

Shu sababdan biz axloqni ma'naviyatning birlamchi poydevori, yakuniy qubbasi deya olamiz. Insonni tanish odobdan boshlansa, u bilan mulotot davomida axloqiy xislatlarini bilib borasiz. Insonni kiyimiga qarab kutib olinishi va odob- ahloqiga qarab kuzatilishi ham bejiz emas. Va'daga vafo qiladimi, do'stga sadoqati qanday, himmati va saxovati, jur'ati va shijoati, o'ktamligi va oriyati – barcha axloqiy fazilatlarini birma-bir ko'z oldingizda namoyon bo'ladi. Bu fazilatlar majmui zamirida esa, yaxlit shaxs ma'naviyati aks etadi. Axloq ma'naviyatga nisbatan surat, tashqi jihat bo'lsa, odob o'z navbatida axloqiy fazilatlarining yuzaga chiqishidir. Shu sababli insonni anglab yetish odobdan-axloqqa, axloqdan ma'naviyatga qarab teranlashib boradi. Lekin, shu bilan birga axloq odobga nisbatan, ma'naviyat esa, axloqqa nisbatan keng qamrovli mohiyatlardandir. Inson odobi uning barcha axloqiy fazilatlarini namoyon eta olmaganidek, shaxsning barcha axloqiy sifatlarini bir yerga jam etganda ham bari-bir, uning ma'naviy dunyosini to'liq qamrab olgan bo'lmaymiz. Ma'naviyat tizimida axloq takomillashadi va sayqal topadi, Chunki unga ma'naviyatning boshqa tarkibiy qismlari – falsafa, din, adabiyot va san'at baravar ta'sir ko'rsatadi. Axloqiy tushunchalar va kategoriyalarning mazmun-mohiyatini falsafa va ilm-fan boyitsa, chuqurlashtirsa, unga yanada aniqlik kiritrsa, rivojlanish omillari ochib, ko'rsatib bersa, adabiyot va san'at axloqiy tushuncha va kategoriyalarga hayotiylik, obrazli aniqlik bag'ishlaydi, turli vaziyatlarda qanday yuzaga chiqishini ko'rsatadi, inson ruhiy olami va taqdiri bilan bog'laydi. Axloq ma'naviyatga nisbatan surat, tashqi jihat bo'lsa, odob o'z

navbatida axloqiy fazilatlarining yuzaga chiqishidir. [6].

Xulosa qilib aytganda, insonni anglab yetish odobdan-axloqqa, axloqdan ma'naviyatga qarab teranlashib boradi. Axloq yo'q joyda ma'naviyat ham bo'lmaydi. Axloqiylikka javob bermaydigan har qaysi g'oya, ta'limot, hodisala ma'naviyiy hodisalar bo'lolmaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.Mirziyoev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T., 2017
2. Ochildiev A. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. – T.: Muharrir, 2010.
3. Norqulov X. Oilada g'oyaviy tarbiya. –T. Muharrir, 2010.
4. Quronov M. Milliy tarbiya. -T.: Ma'naviyat, 2007. -240 b.
5. Mavrulov A. Ma'naviy barkamol inson tarbiyasi. –T.: O'zbekiston, 2008. -80 b.
6. T.Mahmudov. Nafosat va ma'naviy qadriyatlar. – T, 2001.